"ALPOMISH" XALQ DOSTONIDA INSONIY SIFATLARNING IFODALANISHI

Ergasheva Dilshoda Abdusalomovna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika

instituti tillar fakulteti tyutori

Tel: +998939919140

dilshodamuslimabonu@gmail.com

Annotatsiya: "Alpomish" dostoni qahramonlikni, iymonni, or-nomusni kuylovchi doston. Tezisda biz aynan, oriyatni kuylagan, iymon va iymonsizlik yaqqol ko'ringan o'rinlarni ko'rsatib o'tamiz. Ushbu asar orqali o'zbekning haqiqiy o'zligini, milliy ruhini, xarakterini bilib olish mumkin.

Kalit so'zlar: "Alpomish" o'zbek xalq dostoni, qahramonlik, or uchun kurash, insoniylikning belgisi bo'lgan iymonning asar g'oyasida aks etishi.

O'zbek xalq dostonlari ichida "Alpomish" dostoni insonga xos sifatlar: or, nomus, g'urur, iymon, vatanparvarlik hamda qahramonlikni kuylovchi zalvorli asar. Ushbu asar orqali o'zbekning haqiqiy o'zligini, milliy ruhini, xarakterini bilib olish mumkin. Asarni shunchaki sujet tarzida emas, qahramonlar tilidan keltirilgan so'zlarga diqqat qilib, uni to'g'ri mushohada qilish orqaligina dostonning g'oyasini, baxshining nolasini tushunib olamiz.

Dostonda Ko'kaldosh Boysarining qizi haqida shunday deydi: "Bunday dalada chatoq qilib yurganimiz bo'lmas. Yuringlar, to'qsonimiz ham boraylik. O'zbekning qizini yo birimiz olaylik, yo barimiz olaylik. O'rtada javlik xotinli bo'lib qolaylik"(1). Bu yerda Ko'kaldosh Boysari yaxshi gapga ko'nsa birimiz xotinli bo'laylik, yaxshi gapga ko'nmasa, barimiz xotinli bo'laylik degan haqoratlash mazmunidan tashqari, iymonsizlikka yuz tutish

va Alpomishning botiniy sifatlariga batamom teskari bo‘lgan salbiy sifatlar ko‘rinadi (5). Hakimbek bilan Barchinoy tug‘ilgan vaqtida bu ikkovini Shohimardon pir unashtirib “beshikkerti qilib” qo‘ygan bo‘lsa ham Alpomish asarda Barchinga egalik huquqi bilan gapirmasligi, uning qaroriga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi uning haqiqiy mardligini ko‘rsatadi.

Barchin epizodi ham asarda alohida o‘ringa ega. U ham vafodorlikni, ham or-nomusli qiz obrazini ifodalagan. Masalan, Barchinoy bir o‘rinda Ko‘kaldoshga shunday deydi: “Mening to‘ram bilsang, Boysunning xoni, Unga qurbon menday oyimning joni”(1). Barchin bu orqali Ko‘kaldoshga ham umidingni uz deya shama qilmoqda, ham o‘zining vafosini shu qadar ifoda etyaptiki, hatto jonini fido etar darajada. Alpomish do‘sti Qorajonni Barchinga elchi qilib yuborganida esa Barchin shunday deydi: “Alpomish kelsa, kepti-da. Alpomish kepti deb, men Alpomishning etagidan ushlab keta berayinmi?” deb, o‘z shartlarini ma’lum qiladi va shartda g‘olib chiqqanga turmushga chiqishini aytadi. Bunday yo‘l tutgan Barchinoy ham o‘z orini saqlaydi, ham o‘z yorini maydonda kuch sinab, o‘z nomiga yarasha bo‘lishini istaydi. Savol tug‘iladi, “Alpomish” dostoni faqat qahramonlik dostonimi? Yo‘q, bu doston ishq, g‘am va alam dostoni hamdir. Barchin maydonda g‘anim Ko‘kaldoshni yenga olmayotgan Alpomishga qarata “Qizlar sizni narmoda deb aytadi, Qizlarning aytgani menga botadi, Mardlar olishmaydi siltab otadi” deydi. Aslida Barchin bu so‘zlarni Alpomishga qarata aytsa-da, buni Alpomish eshitgani yo‘q. Lekin haqiqiy oshiq qalblar bir-birini mexanik quloqlardan tashqari ruhi bilan, hislari bilan eshita oladi. Dostonda ham xuddi shunday bo‘ladi: “Yor so‘ziman sherdil bo‘lib ketadi, Chirpib Ko‘kaldoshni ko‘kka otadi”. Insonga xos sifatlardan biri bo‘lgan sevgi tuyg‘usi dostonda or-nomusga o‘ralgan holda ifoda etilgan va voqealar rivojida go‘zal yechim topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek xalq qahramonlik dostoni /Aytuvchi: Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, yozib oluvchi: Mahmud Zarifov/. – Toshkent: Sharq, 1998. – 400 b.

2.1956 yil 28 iyunda yozib olingan Inv: 1254 Yozib oluvchi: Oxunjon Sobirov Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi: Jabbor Eshonqulov. 3.Prof.dok.Ibrohim Hafas o‘g‘li.Turk milliy madaniyati. Istanbul. 1993y.257-b. 4.Alpomish. Doston. Aytuvchi Umir Safarov. Yozib oluvchi Oxunjon Sobirov. Qo‘lyozma nusxa. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining folklor arxivi. Inv.№1254,27-bet)

5.O‘zbek xalq og‘zaki ijodi: pedagogika oliy o‘quv yurtlari uchun darslik/ O.Safarov. O‘zR oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Buxoro Davlat universiteti.–T: Musiqa, 2010.368 b